

JINSIY SISTEMA KASALLIKLARINING YILDAN YILGA YOSH TOIFASINING O'ZGARISHI - YA'NI YOSHARISHI

Norqulova Durdona Qahramon qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich talabasi.

durdonanorqulova63@gmail.com

Tursunov Quvonch Nasim o'g'li

Ilmiy rahbar: Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14911109>

Annatotsiya. Ushbu maqolada jinsiy sistema kasalliklarning yildan yilga yosh toifasini o'zgarishi - ya'ni yosharishi haqida so'z boradi. Masalan hozirgi kunda qiz bolalar va yosh qizchalarda ham jinsiy sistema kasalliklari kuzatiladi. Bu, hayz funksiyasining buzilishi va jinsiy a'zolar rivojlanishidagi anomaliyalardir. Bunga, asosan, uning bolaligida boshidan kechirgan turli kasalliklari, noqulay turmush tarzi, hatto u ona qornidaligidayoq onasining birorbir jiddiy kasallik bilan og'riganligi sabab bo'lishi mumkin. Hayz funksiyasining buzilishi qizlarda hayzning kech yoki erta boshlanishi, nomuntazamligi, qon ketishi va hokazo lar bilan kechadi. Maqolaning mohiyatida jinsiy sistema kasalliklarning yildan yilga ko'payishining oldini olish hamda ularni davolash chora tadbirlari to'g'risida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jinsiy sistema, hayz, anomaliyalar, og'riq, qon, tuxumdon, bachadon, zamburug', qin, yelbo'g'oz, homila, sindrom, yallig'lanish, o'sma, gipermenstrual, gipomenstrual, disfunktsional, zaxm, so'zak, abort, tug'ruq, OITS.

CHANGE IN THE AGE CATEGORY OF DISEASES OF THE GENITAL SYSTEM FROM YEAR TO YEAR - I.E., THE AGEING

Abstract. This article discusses the change in the age category of diseases of the reproductive system from year to year - that is, their rejuvenation. For example, today, diseases of the reproductive system are also observed in girls and young girls. These are menstrual dysfunction and anomalies in the development of the genitals. This may be due mainly to various diseases experienced by a girl in childhood, an unfavorable lifestyle, or even the fact that her mother suffered from some serious illness while she was still in the womb. Menstrual dysfunction is manifested in girls by the late or early onset of menstruation, irregularity, bleeding, etc. The essence of the article is to consider measures to prevent the increase in diseases of the reproductive system from year to year and to treat them.

Abstract: Reproductive system, menstruation, anomalies, pain, blood, ovary, uterus, fungus, vagina, vulva, fetus, syndrome, inflammation, tumor, hypermenstrual, hypomenstrual, dysfunctional, syphilis, word, abortion, childbirth, AIDS.

ИЗМЕНЕНИЕ ВОЗРАСТНОЙ КАТЕГОРИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПОЛОВОЙ СИСТЕМЫ ИЗ ГОДА В ГОД - Т.Е. СТАРЕНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается возрастное изменение заболеваемости репродуктивной системы из года в год, то есть их омоложение. Например, сегодня заболевания репродуктивной системы наблюдаются и у девочек и молодых женщин. Это нарушения менструальной функции и аномалии развития половых органов. Это может быть связано, главным образом, с различными болезнями, перенесенными им в детстве, нездоровым образом жизни или даже с тем фактом, что его мать страдала от серьезного заболевания, когда он еще находился в утробе матери. Нарушение менструальной функции у девочек характеризуется поздним или ранним началом менструаций, их нерегулярностью, кровотечениями и т. д. Суть статьи заключается в рассмотрении мер профилактики и лечения ежегодного роста заболеваний репродуктивной системы.

Ключевые слова: Репродуктивная система, менструация, аномалии, боль, кровь, яичник, матка, грибок, влагалище, вульва, плод, синдром, воспаление, опухоль, гиперменструальный, гипоменструальный, дисфункциональный, сифилис, слово, аборт, роды, СПИД.

Kirish: Xotin-qizlar kasalliklari (ayollar kasalliklari, ginekologik kasalliklar) — xotin-qizlar organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlariga bogʻliq kasalliklar boʻlib, ginekologiya fani oʻrganadi. Bu kasalliklar jinsiy sistemaga tegishli boʻlsada, u butun organizmga taʼsir qiladi. Barcha aʼzo va sistemalar bir-biri bilan uzviy bogʻliqligi tufayli Xotin-qizlar kasalliklarik.ga butun organizmning kasalligi deb qarash lozim; ginekologik kasalliklar oʻz navbatida boshqa aʼzo va sistemalar kasalliklari oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin.

Bunda turli spetsifik va nospetsifik infeksiyalar, bolaliqda boshdan oʻtkazgan kasalliklar, endokrin xastaliklar, moddalar almashinuvining buzilishi, hayotiy muhim aʼzolar patologiyasi asosiy ahamiyatga ega. Xotin-qizlar kasalliklarik. bir necha guruhlariga boʻlinadi: yalligʻlanish kasalliklari, hayz faoliyatining buzilishi, oʻsma kasalliklari, jinsiy aʼzolar rivojlanishi hamda joylashuvi anomaliyasi va hokazo Xotin-qizlarda koʻproq yalligʻlanish kasalliklari kuzatiladi.


Bu ko'p jihatdan reproduktiv sistemaning funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, hayz, abort va ayniqsa tug'ruq jarayonida ayol organizmida infeksiya rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Bundan tashqari spetsifik infeksiyalar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar — zaxm, so'zak, trixomonada (qarang Trixomonoz), so'nggi yillarda OITS^[1] (SPID), xlamidiyalar va viruslar Xotin-qizlar kasalliklarik.ning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Ko'p hollarda Xotin-qizlar kasalliklarik.ni stafilokokk, streptokokk, zamburug'lar va boshqa qo'zg'atadi. Og'ir kechuvchi septik holatlarda, asosan, 2 va undan ortiq turdagi mikroorganizmlar kasallik qo'zg'atuvchi sifatida ishtirok etadi. Jinsiy a'zolarining yallig'lanishi kasalliklariga boshqa a'zoldagi yallig'lanish jarayonlari angina, sinusitlar, buyrak kasalliklari va hokazo ham sabab bo'lishi mumkin. Yallig'lanish qaysi a'zoda rivojlanishiga ko'ra kolpit (qinda), endometrit (bachadonda), salpingit (bachadon nayida), ooforit (tuxumdon) va boshqa farq qilinadi. Bu kasalliklarda gavda haroratining ko'tarilishi, intoksikatsiya, bosh og'rishi, umumiy ahvolning o'zgarishi bilan birga mahalliy belgilar — qorin pastida og'riq bo'lishi, og'riqning o'ziga xos tarqalishi (irradiatsiya), qindan ajralmalar (oqchil) kelishi, ba'zan hayz funksiyasining buzilishi kabi alomatlar kuzatiladi. X.Q.K.ning ko'pchiligi hayz funksiyasining buzilishi — gipermenstrual sindrom (hayz qoni miqdorining ortishi) yoki, aksincha, gipomenstrual sindrom (hayz qonining kamayishi yoki hayzning siyraklashuvi), disfunktsional qon ketishi va boshqalar bilan bog'liq. Xotin-qizlar kasalliklarik.dan jinsiy sistemaning xavfli va xavfsiz o'smalari ko'p, ular asosan tuxumdon va bachadonda kuzatiladi, boshqa jinsiy a'zoldagi esa kam uchraydi. Jinsiy a'zolarining o'sma kasalliklarini onkologiya o'rganadi.

Ginekologik amaliyotda jinsiy sistemaning rakoldi kasalliklarini oldini olish muhim, chunki ular vaqt o'tishi bilan rakka aylanishi ham mumkin. O'smalar ham, rakoldi kasalliklar ham odatda ko'zga yaqqol tashlanmaydigan belgilarsiz kechadi, shu sababli ayollar yiliga ikki marta akusherganekologga ko'rinib turishlari lozim.

Qiz bolalar va yosh qizchalarda ham jinsiy sistema kasalliklari kuzatiladi. Bu, hayz funksiyasining buzilishi va jinsiy a'zolar rivojlanishidagi anomaliyalardir. Bunga, asosan, uning bolaligida boshidan kechirgan turli kasalliklari, noqulay turmush tarzi, hatto u ona qornidaligidayoq onasining birorbir jiddiy kasallik bilan og'rigailigi sabab bo'lishi mumkin.

Hayz funksiyasining buzilishi qizlarda hayzning kech yoki erta boshlanishi, nomuntazamligi, qon ketishi va hokazo lar bilan kechadi. Davolash choralari qancha erta boshlansa, shuncha samaraliroq bo'ladi.

Jinsiy sistema a'zolarining rivojlanishi va joylashuvi anomaliyalari ham katta guruhni tashkil etadi; bular qizlik parda, qin, bachadon bo'yni sohasidagi bitishmalar, bachadonning ba'zan ikkita va hokazo bo'lishi. Bu anomaliya lar jarrohlik yo'li bilan davolanadi. Jinsiy a'zolar joylashuvi anomaliyalari (bachadon, qin devorlarining turli yo'nalishda pastga siljishi, hatto tushib ^lishi) ko'pincha tug'ruq asoratlari, ba'zan chanoq tubining tug'ma zaifligi, og'ir jismoniy mehnat oqibatida yuzaga keladi, bu odatda yoshi kattaroq ayollarda kuzatiladi. Bular jarrohlik usulida davolanadi.



Homiladorlikning asoratli kechishi bilan bog'liq ba'zi patologiyalar (homiladorlikning erta muddatlarida homilaning tushib qolishi, bachadondan tashqari homiladorlik, yelbo'g'oz), ba'zi tug'ruq asoratlari (oqma yaralar, qo'shni a'zolar shikastlari) ham ginekologik kasalliklarga kiradi.

Xotin-qizlar kasalliklarik. ichida alohida guruhni neyro endokrin sindromlar tashkil etadi; bu, asosan, gipotalamogipofizar yaatologiyalar bilan bog'liq. Bular ginekologik hamda endokrinologik yo'l bilan davolaniladi.

Ayollar jinsiy sistemasi kasalliklarining oldini olish va davolashni respublikamizdagi tarkibida ayollar konsultatsiyam bo'lgan tug'ruq majmui va oilaviy poliklinikalar amalga oshiradi. Toshkentdagi akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituta, shuningdek, uning viloyatlardagi filiallari homiladorlik va tug'ruq jarayonlarining asoratsiz kechishi, onalar va bolalar muhofazasini ta'minlashda akusherlik va ginekologik yordamni ilmiy tashkil etish maqsadida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Venerik kasalliklar, tanosil kasalliklari, zuhroviiy kasalliklar — jinsiy yo'l bilan yuqadigan zaxm, so'zak, yumshoq shankr, trixomonoz, mikoplazmoz, xlamidioz, chov limfogranulematozi, jinsiy a'zolar sohasi uchug'i, shuningdek orttirilgan immun tanqisligi

sindromi (OITS)ning umumiy nomi. Venerik kasalliklar juda qadimdan ma'lum. Gippokrat, Sels, Galen va boshqa asarlarida ham Venerik kasalliklar haqida ma'lumotlar bor. Kam rivojlangan mamlakatlarda aholining og'ir ahvolda yashashi, ishsizlik, ba'zi ayollarning hech qayerda ishlamay fohishalik bilan shug'ullanishi, erkaklarning moddiy qiyinchilik tufayli duch kelgan ayollar bilan jinsiy aloqada bo'lishi, alkogolizm, giyohvandlik va boshqa Venerik kasalliklar ning tarqalishi va ko'payishiga za'min yaratadi. Venerik kasalliklar (ayniqsa zaxm, so'zak va xlamidioz) keng tarqalishi mumkin. Ular kishilar sog'lig'iga putur yetkazishdan tashqari, jamiyat uchun ham xavflidir. Venerik kasalliklar vaqtida davolanmasa yoki noto'g'ri davolansa kasallik surunkali tus olib, bemor uzoq vaqtgacha ish qobiliyatini yo'qotadi, ko'pincha nogiron bo'lib qoladi. So'zak bo'lgan erkak yoki ayol uzil-kesil davolanmasa, jinsiy zaif, umrbod bepusht bo'lib qolishi mumkin. Venerik kasalliklar bilan og'rikan bemorlarning ichki a'zolari va markaziy nerv sistemasi izdan chiqadi. Zaxm bo'lgan ayol homilador bo'lib, o'z vaqtida davolanmasa, bola yo o'lik yoki zaxm bilan kasallanib, mayib-majruh bo'lib tug'iladi (tug'ma zaxm). Venerik kasalliklar bilan og'rikan bemor o'z vaqtida teri-tanosil kasalliklari dispanseriga murojaat qilib, mutaxassis vrach ko'rsatmasi bo'yicha davolansa, albatta, tuzalib ketishi mumkin. Sayoq yurish, ichkilikka ruju qilish, tasodifiy jinsiy aloqalarga yo'l qo'yish Venerik kasalliklar ning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Erkaklarda uchraydigan impotensiya (lot. impotentia — kuchsiz, zaif), jinsiy zaiflik — erkakning jinsiy aloqa qilishga bequvvatligi; raso jinsiy aloqa qila olmaslik. Bunda jinsiy funksiya — jinsiy mayl, ereksiya (jinsiy olat, ya'ni zakar tarangligi), ejakulyasiya (urug' otilishi) yoki orgazm (xush yoqish sezgisi) buzilishi mumkin. Impotensiyaning sabablari jinsiy a'zolar, endokrin sistema, periferik nervlar va bosh miya oliy bo'limlari funksiyasining buzilishi bilan bog'liq. Impotensiya mustaqil kasallik bo'lmay, balki, odatda, azaldan mavjud kasallik asorati bo'lishi ham mumkin. Impotensiya bir necha xil bo'ladi. Moyak istisqosi, jinsiy olat sohasida chandiqlik hosil bo'lishi va b. organik impotensiyaga sabab bo'ladi. Bosh miyadagi organik va funksional kasalliklar kortikal (serebral) impotensiyaga olib keladi, bunda, asosan, ereksiya, ejakulyasiya va jinsiy mayl izdan chiqadi. Shikastlanish, surunkali yuqumli kasalliklar (zaxm, sil), intoksikatsiya (mishyak, alkogol va hokazodan zaharlanish), moddalar almashinuvining buzilishi orqali miyadagi ereksiya va ejakulyasiya markazlariga zarar yetkazib, Impotensiyaga sabab bo'la oladi (spinali.), bunda ereksiya, ejakulyasiya susayadi. Jinsiy hayotga mukaddan ketish, jinsiy aloqani oxiriga yetkazmay to'xtatish, onanizm bilan juda ko'p shug'ullanish, infeksiya kasalliklar (so'zak va b.) bilan bog'liq bo'lgan surunkali yallig'lanish jarayonlarida

prostata bezi, uretra (siydik chiqarish kanali)ning orqa qismi va urug' do'mboqchasidagi nerv oxirlari uzoq ta'sirlanishi neyroretseptor Impotensiyaga sabab bo'lishi mumkin. Moyaklarning endokrin funksiyasi buzilganda aksari jinsiy mayl susayadi, ereksiya bo'shashib va hatto butunlay yo'qolib ketadi. Moyaklarning yoshga aloqador o'zgarishlari, tug'ma kasalligi (yetilmaganligi, yevnuxoidizm) yoki hayot davrida orttirilgan kasalliklari (shikastlanishi, yallig'lanishi), boshqa ichki sekretiya bezlari (gipofiz, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari)ning zararlanishi, moddalar almashinuvining buzilishi (avitaminoz, diabet va b.), markaziy nerv sistemasi kasalliklari ularning endokrin funksiyasini buzishi mumkin (endokrin I). Jinsiy aloqa chog'ida har ikki jins o'rtasidagi nomunosib xatti-harakatlar (shunchaki yengil-yelpi, yuzaki jinsiy aloqa qilish) ham jinsiy zaiflikka olib keladi. Impotensiyani urolog vrach davolaydi; ba'zan endokrinolog va psixiatr bilan maslahatlashish lozim. Ba'zi ayollarning jinsiy yaqinlikka befarq bo'lishi, erzadaligi (qarang Vaginizm) ham Impotensiyaga olib keladi. Bunday hollarda ginekolog vrach bilan maslahatlashish ma'qul. Psixoterapiya, organizmni mustahkamlovchi dorilar, gormonal preparatlar, vitaminlar, har xil tabiiy usullar va b. bilan davolash yaxshi naf beradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jinsiy sistema kasalliklarining yosh toifasi yildan-yilga yosharib borishi global sog'liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu holatning asosiy sabablari orasida hayot tarzi o'zgarishi, jinsiy tarbiyaning yetishmasligi, infeksiyalarning keng tarqalishi va texnologik omillarning ta'siri bor. Yoshlar orasida erta jinsiy hayot boshlanishi, himoyasiz jinsiy aloqalar va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik kasalliklarning keng tarqalishiga olib kelmoqda.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun aholining, ayniqsa, yoshlarning jinsiy sog'liq bo'yicha bilimlarini oshirish, profilaktika choralarini kuchaytirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish zarur. Shu bilan birga, maktab va oliy ta'lim muassasalarida sog'lom hayot tarziga oid ma'lumotlarni kengaytirish va ota-onalar ishtirokida tushuntirish ishlarini olib borish samarali natija beradi. Aks holda, jinsiy sistema kasalliklarining yoshlar orasida ko'payishi kelajak avlod salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

REFERENCES

1. O'rttirilgan immun tanqisligi sindromi“, Vikipediya, 2024-09-05, qaraldi: 2025-01-04
2. “Xotin-qizlar kasalliklari” O‘zME. X-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. “Impotensiya” O‘zME. I-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yi
5. Qodirova A. A. va b., Ginekologiya, T., 1997.